

PAK VAN SO IJODIDA “XAN” KONSEPTI

Sh. Bazarova¹*Annotatsiya:*

Maqolada Pak Van So ijodida “xan” konseptining filologik tahlili berilgan. Koreys tilida sabr, qayg‘u, tavba, norozilik, bezovtalik, xafagarchilik, hasad, pushaymonlik, tuyg‘ularini anglatuvchi “xan” leksemasi va uning asarlardagi roli va o‘rniga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Xan, vonxan, pxansori, leksema.

doi: <https://doi.org/10.2024/e84tdd90>

Kirish. Koreys tilidagi “xan” –한 yoki “vonxan”- 원한 so‘zlari chuqur ma’noga ega. Koreys xalqi tafakkurining muhim xususiyatini ifodalaydigan bu so‘z o‘zbekcha “sabr-toqat” ifodasiga ham yaqin turadi. Bu konsept nafaqat “qayg‘u, pushaymonlik, azob chekish, xafagarchilik” ni bildiradi, balki katarsis (tozalash, ozod qilish)ni ham anglatadi. “Har bir koreys qalbida o‘zining “xan”i bilan yashaydi” [Kim Teok, 2009]. Bu fikrning isboti XX asr Koreya tarixida tasdiqlangan. Qiyin mustamlakachilik davrida va mamlakatni hududiy va ma’naviy jihatdan ikkiga bo‘lgan fuqarolar urushi tugaganidan keyingi dastlabki o‘n yilliklarda adabiyotda tushkunlik va qo‘rquv mavjud bo‘lgan. Koreya Respublikasi adabiyotshunoslari “xan” tushunchasidan mustamlakachilik davri she‘riyatiga fojiviy tus berish uchun foydalanishgan, buni XX asrning ikkinchi yarmida sezish mumkin. koreyscha oddiygina 답답하다- (yuragi siqilmoq) bilan yurak og‘rig‘i va qayg‘usini ifodalaydi. Azob-uqubatlar, qayg‘u, ozodlik va nomus uchun hayot evaziga kurash olib borish Yevropa madaniyatiga xos bo‘lgan, ammo mumtoz koreys adabiyotida aksincha ifodalangan. Konfutsiy an‘analarida his-tuyg‘ularni fosh qilish va ayniqsa, tuyg‘ular ta’sirida jangga kirish odat tusiga kirmagan. Ularning namoyon bo‘lishi johillik belgisi hisoblangan. Konfutsiychilikda salbiy his-tuyg‘ularning ko‘tarilishi baxtsizlikni keltirib chiqaradi degan fikr mavjud bo‘lgan.

Asosiy qism. “Xan” tushunchasi asosan ayolning hayoti, uning og‘ir taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan. Koreys an‘analarida ayol har doim ijtimoiy zinapoyada erkakdan pastroq turgan, erkakka bo‘ysungan: otasi, eri, katta o‘g‘li. U hatto o‘z ismi bilan ham chaqirilmagan, faqat otasining ismi bilan, erining ismi bilan, keyin esa o‘g‘lining ismi bilan atalgan. “Xan” konseptining klassik namunasi o‘rta asrlarning mashhur asarlaridan biri “Chunhyang haqida hikoya” asarida Chunhyang obrazida namoyon qilingan. Ayolning baxtga bo‘lgan huquqini isbotlash uchun u ko‘plab sinovlardan o‘tadi. Asarda “xan” konsepti ayolning taqdiri kamtarligi va hayot qiyinchiliklariga bo‘ysinishi bilan ifodalangan. Shoir Pak Je Sam (1933) uchun Chunhyang obrazi “Chunhyang ruhi” she‘riy to‘plamida asosiy rol o‘ynagan [The 100 years..., 2000]. Shoir an‘naviy obrazdan foydalanadi. To‘plam 1962 yilda Singumunghvasa nashriyoti tomonidan nashr etilgan, uch qismdan iborat, 30 ta she‘rni o‘z ichiga oladi. Ushbu to‘plamda shoir

¹ Bazarova Shaxlo, SamDCHTI, Koreys filologiyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

“xan” tushunchasidagi qarashlar, Chunxyang timsolidagi umidsizlik, qayg‘u va g‘amginlik tuyg‘usini aks ettirgan. Pak Vanso hikoyalarida “xan” konseptining qo‘yidagi turlarini ko‘rish mumkin: 1. Siyosatdagi “xan” tushunchasi. Siyosatdagi “xan” tushunchasini ikkiga bo‘lib o‘rganish mumkin. Ya‘ni boshqaruv tamoyilida ifoda etiladigan “xan” va partiya nizosiga bog‘liq bo‘lgan “xan”. Siyosiy boshqaruv tamoyili sifatida foydalanilgan norozilikni davrlar bo‘yicha muhokama qilish mumkin. Ammo, biz Choson sulolasining turli hujjatlaridagi “xan” tushunchasiga nazar tashlasak, u siyosiy mafkura darajasida ishlanishini, lekin doimo kosmologik daraja bilan bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, hukumatning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi norozilikni bostirishga bog‘liqligini va hukumatning noroziligini hukumat tamoyili sifatida ishlatishi va jamoatchilikning noroziligi bog‘langanligini ko‘rish mumkin. Shunga ko‘ra, fuqarolik shikoyatlari kichik istaklar bo‘lib, agar ular bir joyga to‘planib, minglab qo‘shilib buyuk orzuga aylansa, bu tabiat in‘omining buzilishiga olib keladi va shu bilan hokimiyatning qulashi muqarrar bo‘ladi deb bilishgan. Shuning uchun hukmdorlar xalqdan xuddi osmondan qo‘rqanlariday qo‘rqishlari kerak bo‘lgan. Hamda har qanday siyosatni ishlab chiqishdan oldin, norozilikni oldindan to‘xtatish, ya‘ni xafagarchilikni yo‘q qilish va odamlarning o‘sha vaqtda paydo bo‘lgan noroziligini bartaraf etadigan tomonlari haqida targ‘ib qilishgan. “xan” so‘zini siyosatdagi tamoyillar sifatida ishlatilganligini Choson qiroli va yilnomalarida yozilgan ibora va kontekstlarda ko‘rish mumkin.

2. Xalq e‘tiqodlaridagi “xan” konsepti. Xalq e‘tiqodlaridagi “xan” tushunchasini uchga bo‘lib tushuntirsa bo‘ladi: “shamanning kirish marosimi”, “vafot etganlar uchun qasos olib va samoviy dunyoga yuborish”, “odamlarning kasalligi, tanani, gunohni davolash yoki oldini olish”. Shamanni tayinlash paytida “xan” shaman bo‘layotgan odamning xafagarchiligi va noroziligini bartaraf etadi. Bunga “바리데기” afsonasi misol bo‘la oladi. Afsonada shaman har xil qiyinchiliklarni yengib o‘tayotgan jarayonda shamanga aylanadi va unga boshqalarning qayg‘u va g‘amini yechish qudrati paydo bo‘ladi. Shaman tayinlanayotgan vaqtda yoki balog‘atga yetish davrida jismoniy va ruhiy sinovdan o‘tish jarayoni muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Ular boshqalarning g‘am tashvishini yechishni o‘z bo‘yniga olgan ruhoniylar hisoblangan. Nafratning shakllanishi va undan xalos bo‘lishi tirik odamning kasalligini, adolatsizligini yoki azobini davolash, oldini olish yoki yengillashtirishda ham rol o‘ynaydi. Barcha kasalliklar yoki kasalliklarning manbai qasoskor ruhlardan kelib chiqadi va kasallikning manbai bo‘lgan g‘azablangan odamni ozod qilish orqali yo‘q qilinadi, deb ishoniladi. Aksincha, kasallik yoki muammoning oldini olish uchun, masalan, tug‘ilgan kunida chaqaloqlarni o‘limdan himoya qilish uchun “100 yil” sutrasini o‘qish va kelin va kuyovni himoya qilish uchun to‘y kuni ertalab “7 yil” sutrasini o‘qish kabi holatlar mavjud bo‘lgan. Bundan tashqari, inkor qilish bilan bog‘liq e‘tiqodlar qishloqqa ta‘ziya bo‘lgan vaqtda, ta‘ziyaga borganlar bola tug‘ilgan uy yoki to‘y bo‘lgan xonadonga kirish taqiqlanganligiga ishonishganlar. Bularning barchasi yomonlikning oldini olishga qaratilgan, ya‘ni yomonlikni keltirib chiqarmaslik asosiy tamoyil hisoblangan. **Maqollarda, hikoyalarda, xalq qo‘shiqlarida, pxansorida uchraydigan “xan” konsepti.** Ko‘pchilik norozi odamlar hokimiyatdan chetlashtirilgan va iqtisodiy jihatdan qashshoq bo‘lgan quyi tabaqa vakillaridir. Hukmron sinf va badavlat sinfning noroziligi kam uchraydi. Shuning uchun hukmron yoki boy tabaqaning kundalik hayoti yoki san‘atida “Xan” tushunchasi ya‘ni norozilikni topish qiyin. Biroq quyi

tabaqa vakillarining maqol, xalq ertaklari, xalq qo'shiqlari, pansoriylari kabi hayotiy san'ati umidsiz gina-kuduratdan asoslangan. Buni tabiiy hodisa sifatida ko'rish kerak bo'lsa-da, ular maqol, xalq ertaklari, xalq qo'shiqlari, pansoriyalari orqali ham o'zlarining ichidagi noroziliklarini ifodalaganlar. Maqollar xalq hayotini aks ettirgani uchun ular da nafrat ham bo'lishi tabiiy. Maqollarda ifodalangan qayg'u, asosan, ayollarning noroziligi, faqirligi haqidadir. “여자가 한을 품으면 오뉴월에도 서리가 내린다” maqolasida ayollarning noroziligining ifodali namunasi bo'lib, u ayolning noroziligi qo'rqinchli degan ma'noni o'zida mujassam etgan bo'lsa-da, uni Koreya ayollarining noroziligi, nafratlari ko'p bo'lgan, deb ham izohlash mumkin. Qolaversa, qaynona-kelinning og'ir hayotidagi norozilik, qaynona o'rtasidagi ziddiyatni ifodalovchi maqollar ko'p. “시집 가서는 귀머거리 3년이요, 병어리 3년이라.”- (Turmushga chiqqanimda 3 yil kar, 3 yil soqov bo'lib qoldim), “때리는 시어미보다 말리는 시누이가 더 밍다.”- (Meni urgan qaynonamdan ko'ra meni to'xtatadigan qayn-opani yanada yomon ko'raman) kabilardir.

Qashshoqlikni Xanning sababi sifatida tasvirlaydigan yana ko'plab maqollar mavjud. “가난 구제는 나라도 못한다.”, “똥구멍이 찢어지게 가난하다.”, “피죽도 썬어 줄 것 없고, 새양쥐 불가심할 것 없다.” bu kabi qashshoqlikni ifodalovchi maqollarning ko'pligi bilvosita xalq hayotining qanchalik qashshoq bo'lganidan dalolat beradi. Hikoyalar mif, rivoyat, xalq ertaklari va boshqalarga tegishli. Bularning barchasi xalq orasida og'zaki tarzda o'tib ketgan hikoyalar bo'lib, ularning ko'pchiligi, afsonalar va xalq ertaklari, “Xan” ya'ni norozilik bilan bog'liq. Avvaldan eshitib kelingan “옛날 옛적에.....”- (Qadim Qadim zamonda...) so'zlari bilan boshlanadigan avvalgi hikoyalarning deyarli barchasining mavzusi rag'batlantirish va jazolashdir. Ularda yaxshi odam va yomon odam bo'lib, boshida yomon odamlar yaxshi yahsaydi, lekin vaqt o'tib yomonlar kasofatga uchrashadi va yaxshilar yaxshi yashay boshlaydi. Bunga “흥부전” hikoyasi misol bo'la oladi. Bu hikoyadan xalqning o'z nafratini-“Xan”ini yashirincha hikoya orqali ifoda etganlari ma'lum bo'ladi. Xalq ertaklari orasida jinlar haqida ham ko'plab hikoyatlar mavjud. Bunday hikoyalarning mazmuni asosan “Xan” ya'ni g'azab bilan vafot etgan, yana dunyoga paydo bo'lib, o'z o'chini oladi. “장화홍련전” kabi hikoyalar shulardan biridir. Odamlar voqealarni boshqalarga aytib berish orqali o'zlarining nafrat va g'azablarini yengillashtirganlar.

“Xan” bilan nafaqat hikoyalar, balki ko'plab xalq qo'shiqlari ham bog'liq. Xalq qo'shiqlarida “Xan”-nafrat maqol yoki hikoyalarga qaraganda aniqroq ifodalanadi. Xalq qo'shiqlari xalq orasida azaldan og'zaki shaklda o'tib kelayotgan qo'shiqlar bo'lgani uchun ular maxsus tayyorgarlik va mahorat talab etmaydi, mavzusi rang-barang, his-tuyg'ularning ifodasi obrazli bo'ladi. Eng avvalo, xalq qo'shiqlari xalq hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan san'atdir hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, u asosan ishlayotganda, marosimlarni bajarayotganda yoki o'ynaganida kuylanadi. Mazmuni, asosan, turmushga chiqqan ayol bilan yashash, bevaning qayg'usi, mehnat mashaqqatlari, erning xotini bilan munosabati, opa-singillar o'rtasidagi janjal kabi oddiy xalq hayotidagi his-tuyg'ularni erkin ifodalovchi so'z san'ati hisoblanadi. U o'z ehtiyojiga qarab kuylangani uchun xalq ertaklari, pansoriylar kabi tinglovchining munosabatiga bog'liq bo'lishning hojati yo'q, faqat o'z ehtiyojini qondirish uchun kuylanadi xolos. Xalq qo'shiqlarining samimiyligi ham shundan

iboratki, “Xan”-nafratni batafsil ifodalash mumkin edi. “Xan”-norozilik, nafrat eng jiddiy ifodalangan xalq qo‘shiqlari bu turmush qurgan ayolning hayot mashaqqatlarini kuylaydigan qo‘shiqlardir: “잠아 잠아 오지 마라/시어머니 눈에 난다/시어머니 눈에 나면/임의 눈에 절로 난다”, “논에 가면 같이 원수/밭에 가면 바래기 원수/집에 가면 씨누 원수/세 원수를 잡아다가/참실로 목을 매어/범든 골에 영고지나” Namdo mintaqasida to‘plangan bu ikki xalq qo‘shig‘ida qaynona-kelin bilan yashash mashaqqatlari, qayn-singlisiga nafrat to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalangan. Oddiy ayollarning qayg‘usi qashshoqlik va ortiqcha ish emas, balki qaynona-qaynota tomonidan zo‘ravonlik edi. Oddiy ayollarning noroziligi janubiy mintaqada to‘plangan quyidagi xalq qo‘shiqlarida ham yaqqol ifodalangan: “어매 어매 우리 어매/뭘 먹고 날 맹글었나/우리 어매 날 날 적에/죽순 나물 먹었던가/마디마디 육천 마디/마디마다 설움이네” Biroq, oddiy ayollarning barcha noroziligi fundamental fatalizm bilan yakunlanadi. Ular xalq qo‘shiqlarini kuylash orqali nafrat, qayg‘u va mashaqqatlarini izhor etar edilar va hech qachon g‘ayriijtimoiy, axloqsizlarcha norozilik bildira olmasdan chidashga to‘g‘ri kelar edi.

Xulosa. “Xan” tushunchasi koreyscha “g‘am, qayg‘u, xafagarchilik” hissini bildiradigan so‘z. Xitoy va Yaponiyada “Xan” ya‘ni xafagarchilik yo‘q, ularda faqat “Von” ya‘ni g‘alaba so‘zi bor. Qadimiy Xitoy Xan so‘zini topib bo‘lmaydi, uning o‘rniga faqat Von so‘zini uchratish mumkin. Hatto G‘arbda ham his tuyg‘uni asosiy qismini anglatadigan “Xan” so‘zining bir xil ma‘nodagi muqobilini topib bo‘lmaydi. Von va xan so‘zlariga yaqin keladigan o‘zbek tilidagi “afsus”, “norozilik”, “g‘azab” kabi so‘zlar bor, lekin bu so‘zlar ma‘no jihatidan ancha uzoqda. “Xafagarchilik” so‘zi xafagarchilik ma‘nosidan ko‘ra bezovtalik ma‘nosiga yaqin bo‘lib, “xafa” esa g‘azablangan so‘ziga yaqin keladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

- [1]. Пак Ван Со. *Стоящая женщина Сеул: Чутьпан сэгеса*, 1985 17-239 с
- [2]. Курбанов С.О. *Курс лекций по истории Кореи: с древности до конца XX века*. СПб., 2002. 680 с.
- [3]. Saydazimova U.T., Choy So Yong va b. “Zamonaviy koreys nasri antologiyasi”. Toshkent, 2014.
- [4]. *Koreys adabiyotidan tanlangan asarlar*. –Seoul, Think book, 2015.
- [5]. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (1 (74)), 124-127
- [6]. Базарова, Шахло Шухратовна. “Koreys adibasi shin kyon suk ijodining o‘ziga xosligi xususida.” *Международный журнал искусство слова* 5.3 (2022).
- [7]. Shuxratovna, Bazarova Shahlo. “Koreys adibasi pak van so ijodining o‘ziga xosligi xususida.” *Gospodarka i Innovatsje*. 24 (2022): 56-59.
- [8]. Bazarova, Shahlo Shuxratovna. “Li Xe Jo asarlarida gender tenglik munosabatining ilgari surilishi.” *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.Special Issue 24 (2022): 180-188.

[9]. Bazarova, Shahlo Shuxratovna. "Saida Zunnunova asarlarida feministik qarashlarning aks ettirilishi." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.Special Issue 24 (2022): 155-164.*